




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-avgust)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2022- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3482,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,2 mln. AQSh dollariga yoki 3,8 % ga ko'paydi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 1371,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 105,1 %) va import hajmi 2110,7 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 97,5 %) yetdi. Hisobot davrida 739,5 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-avgustga nisbatan, %da)

2022- yil yanvar-avgust

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	794,5	298,3	496,2	22,8
Xitoy	696,8	281,3	415,5	20,0
Qozog'iston	610,6	91,3	519,3	17,5
Turkiya	528,6	419,8	108,8	15,2
Braziliya	170,9	0,0	170,9	4,9
Tojikiston	68,5	42,0	26,5	2,0
Italiya	44,3	16,7	27,6	1,3
Qirg'iziston	44,2	26,9	17,3	1,3
Afg'oniston	44,1	43,8	0,3	1,3
Germaniya	42,4	4,3	38,1	1,2
Belorussiya	39,1	16,8	22,3	1,1
Ukraina	33,1	14,1	19,0	1,0
Koreya Respublikasi	31,4	6,0	25,4	0,9
Ozarbayjon	23,5	6,2	17,3	0,7
Niderlandiya	22,5	16,8	5,7	0,6
Polsha	22,2	7,4	14,8	0,6
Daniya	20,6	0,0	20,6	0,6
Eron (Islom Respublikasi)	19,5	3,1	16,4	0,6
Litva	18,3	1,0	17,3	0,5
Hindiston	17,3	2,9	14,4	0,5




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,9 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 99,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-avgust oylarida 53,1 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,7 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-avgust, % hisobida)






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Ukraina davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-avgust)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-avgust oyi yakuni bilan 1371,3 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 105,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (69,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,6 %), turli xil tayyor buyumlar (9,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,5 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,8 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (3,2 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1371,3	507,5	863,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	131,8	73,5	58,3	9,6	14,5	6,7
Ichimliklar va tamaki	2,6	2,5	0,1	0,2	0,5	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	48,1	25,6	22,5	3,5	5,0	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	2,6	0,6	2,0	0,2	0,1	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	0,2	1,2	0,1	0,04	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	52,6	39,2	13,4	3,8	7,7	1,5
Sanoat tovarlari	954,0	210,6	743,4	69,6	41,6	86,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	43,9	28,7	15,2	3,2	5,7	1,8
Turli xil tayyor buyumlar	129,7	124,9	4,8	9,5	24,6	0,6
Xizmatlar	4,6	1,7	2,9	0,3	0,3	0,3





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-avgust)

2022- yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	105,1	117,7	99,0
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	101,0	97,9	105,3
Ichimliklar va tamaki	153,0	153,0	153,9
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	78,9	68,1	96,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	11,8 m.	4,7 m.	21,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	149,7	3,8 m.	136,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	107,5	117,8	85,5
Sanoat tovarlari	102,4	121,8	98,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	2,0 m.	2,4 m.	153,6
Turli xil tayyor buyumlar	128,3	127,8	144,0
Xizmatlar	71,9	187,0	52,7

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-avgust)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1203,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,8 %ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 82,8 mln. dollar qiymatga ega 153,5 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 6,6 %ga kamaygan, naturada – 94,6 %ga o'zgarish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 38,4 mln. AQSh dollariga teng 89,8 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 23,8 %ga kamaygan), shuningdek, 22,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 20,4 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 16,6 %ga kamaygan).

2022- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
20,4 ming tonna
22,6 mln.
AQSh dollari



Uzum
10,9 ming
tonna
11,3 mln.
AQSh dollari



Yeryon-g'oqlar
2,1 ming tonna
2,9 mln. AQSH
dollari



Sabzavotlar
89,8 ming tonna
38,4 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 60,6 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 4,4 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-avgust)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-avgust oylari mobaynida import hajmi 2110,7 mln. AQSh dollari (2021- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 97,5 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush sanoat tovarlari (19,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (21,4 %) mashinalar va transport asbob-uskunalari (18,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (20,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-avgust)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			Umij hajmga qaratilgan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2110,7	1125,0	985,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	451,6	197,8	253,8	21,4	17,6	25,8
Ichimliklar va tamaki	3,4	3,3	0,1	0,2	0,3	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	439,6	415,4	24,2	20,8	36,9	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	66,5	65,0	1,5	3,1	5,8	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	38,1	36,0	2,1	1,8	3,2	0,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	222,3	62,2	160,1	10,5	5,5	16,2
Sanoat tovarlari	408,3	289,0	119,3	19,3	25,7	12,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	394,0	41,3	352,7	18,8	3,7	35,8
Turli xil tayyor buyumlar	78,5	11,9	66,6	3,7	1,1	6,8
Boshqa tovarlar	2,8	1,9	0,9	0,1	0,2	0,1
Xizmatlar	5,6	1,2	4,4	0,3	0,1	0,4

Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (36,9 %) va sanoat tovarlari (25,7 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (25,8 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-avgust, % hisobida)

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	97,5	92,9	103,3
shujumlardan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	145,9	145,3	146,4
Ichimliklar va tamaki	55,9	58,3	15,7
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	91,4	89,8	130,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	99,0	98,5	131,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	72,4	75,4	43,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	129,3	117,7	134,4
Sanoat tovarlari	110,5	112,7	105,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	67,5	26,0	83,0
Turli xil tayyor buyumlar	84,0	67,7	87,8
Boshqa tovarlar	30,1	49,8	16,1
Xizmatlar	27,7	45,4	24,9



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-avgust)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Italiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1776,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,2 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59